



O'QUVCHILAR INTELLEKTUAL RIVOJLANISH DARAJALARINI DIAGNOSTIK O'RGANISH VA RIVOJLANTIRISH

Tangriyeva Fotima Lutfullayevna

Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani 2-umumta'lim maktabi

Oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi,

Xalq ta'limi a'lochisi, pedagog

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanish darajalarini aniqlashga qaratilgan diagnostik usullar va ulardan ta'lim amaliyotida foydalanish masalalari yoritilgan. O'n besh yillik pedagogik faoliyat davomida to'plangan kuzatishlar asosida, o'quvchilar o'rtasida intellektual rivojlanish farqlari qanchalik katta ekanligi va bu farqlarni e'tiborsiz qoldirishning qanday oqibatlariga olib kelishi ko'rsatib o'tilgan. Maktab sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan oddiy diagnostik kuzatuv usullari va standart psixologik testlar haqida ma'lumot berilgan. Xulosa qismida differensial yondashuvni kundalik ta'lim jarayoniga tatbiq etish yo'llari taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: intellektual rivojlanish, boshlang'ich sinf, diagnostika, differensial yondashuv, kognitiv qobiliyat, rivojlantiruvchi ta'lim, pedagogik kuzatuv, individual yondashuv.

Аннотация. В статье рассматриваются диагностические методы выявления уровней интеллектуального развития учащихся начальных классов и вопросы их практического применения в учебном процессе. На основе наблюдений, накопленных за пятнадцать лет педагогической деятельности, показано, насколько велики различия в интеллектуальном развитии учеников и к каким последствиям приводит игнорирование этих различий. Приводятся примеры из практики и описываются доступные для школы методы диагностического наблюдения. Заключительная часть статьи посвящена способам внедрения дифференцированного подхода в повседневный учебный процесс.

Ключевые слова: интеллектуальное развитие, начальная школа, диагностика, дифференцированный подход, когнитивные способности, развивающее обучение, педагогическое наблюдение, индивидуальный подход.

Annotation. This article discusses diagnostic approaches to identifying the levels of intellectual development among primary school students and their practical application in the classroom. Drawing on fifteen years of teaching experience, the author illustrates how significant the differences in students' intellectual development can be, and what follows when these differences are ignored. Classroom observation

techniques and standard assessment tools are described with practical examples. The concluding section presents ways to integrate differentiated instruction into everyday teaching.

Key words: intellectual development, primary school, diagnostics, differentiated instruction, cognitive ability, developmental learning, pedagogical observation, individual approach.

Bu mavzuni nima uchun yozdim

O'qituvchi bo'lib ishlaganimning o'n beshinchi yili. Shu yillar ichida bir narsani aniq tushundim — sinfdagi o'ttiz bola, o'ttiz xil inson. Biri siz tushuntirishni tugatmasdan oldin javobni aytib qo'yadi, boshqasi bir masalani uch kun urinib tushunishga harakat qiladi. Men ham avvaliga ko'p o'qituvchilar kabi bu farqni «yaxshi bola» va «dangasa bola» deb izohlardim. Asta-sekin angladimki, bu umuman to'g'ri emas ekan.

Bir kuni — bu taxminan to'rt yil oldin — sinfimda Ahmadjon ismli bola bor edi. Arifmetikadan doim past baho olardi. O'qishni esa juda yaxshi ko'rardi, hikoyalarni aytib berishda undan zo'r yo'q edi. Men Ahmadjonning onasini chaqirib, «bolangizni ko'proq ishlating» dedim. Ona uyalib ketdi, indamay chiqdi. Keyinchalik o'sha bola so'z orqali dunyoni anglaydigan, o'z turdagi ziyrak bola ekani menga ayon bo'ldi. Matematikadan kuchsiz edi, lekin intellekti past emas — shunchaki boshqacha edi. O'sha voqea menga katta saboq bo'ldi.

Shu voqeadan so'ng ko'proq o'qiy boshladim. Psixologiya, pedagogika, intellekt haqida. Va shuni angladimki — bizning maktablarimizda o'quvchining intellektual darajasini aniqlab, shunga mos ta'lim berish deyarli yo'q. Mana shu muammo ushbu maqolaning asosini tashkil etdi.

Intellekt deganda nimani tushunish kerak

Ko'pchilik «intellekt» deganda biror IQ raqamini ko'z oldiga keltiradi. Aslida bu tushuncha ancha kengroq. Psixolog olimlar ham, mening o'z kuzatishlarim ham shuni ko'rsatadi — intellekt bu odamning hayotdagi muammolarni hal qila olish, yangi bilimlarni qabul qilish va ulardan foydalana olish qobiliyatidir.

Govard Gardner 1983-yilda juda qiziq bir nazariya taklif qildi. Uning fikricha intellekt bir xil emas, bir necha turda bo'ladi: so'z bilan ishlash (lingvistik intellekt), raqam va mantiq, rasmlar va fazoni tasavvur qilish, musiqa hissi, jismoniy mahorat va boshqalar. Men bu ro'yxatni o'qiganimda darhol Ahmadjonni eslashim bejiz emas — u so'z va hikoya sohasida hayratlanarli edi. Bu ham intellektning bir turi.

Rus olimi Lev Vigotskiy «yaqin rivojlanish zonasi» degan tushunchani kiritgan. Oddiy qilib aytganda: bola hozir o'z-o'zicha bajara olmaydigan, lekin biroz yordam

bilan uddalay oladigan vazifalar zonasi — eng muhim ta'lim maydoni. Biz o'qituvchilar ba'zan juda oson yoki juda qiyin topshiriq beramiz. Ikkalasi ham noto'g'ri. To'g'ri topshiriq — bolaning cho'zilsa yetadigan joyida turgan topshiriq.

Va eng muhimi: intellekt o'zgarmas narsa emas. To'g'ri yondashuv bilan bolaning kognitiv qobiliyatlari oshishi mumkin. Bu menga katta umid beradi.

O'quvchilarning intellektual darajasi qanday aniqlanadi

Rasmiy psixologik testlar mavjud, albatta. Lekin men avval o'qituvchining o'z kuzatuvidan boshlashni ma'qullayman.

Kuzatuv — men ko'p yildan beri eng ko'p ishongan usul. Har kuni sinfda o'tirasiz. Kimdir yangi mavzuni birinchi tushuntirishdayoq anglaydi; kimdir uchta misoldan keyin; kimdir daftariga qarab o'tiradi, lekin hech narsa yozmaydi. Shu kuzatuvlarni tartibga solib, har bir o'quvchi haqida oddiy yozuvlar yuritish mumkin: o'zlashtirish tezligi, qayerda ko'proq qiyinchilik, mustaqil ishlash darajasi. Bu o'z-o'zicha diagnostikadir.

Rasmiy testlardan eng keng tarqalgani — Raven progressiv matritsalar. Geometrik shakllar orqali mantiqiy fikrlashni o'lchaydi. Tilga bog'liq emasligi katta ustunlik — bolaning o'zbek tilini qanchalik bilishi natijaga ta'sir qilmaydi. Men bir kuni sinfimdagi bolalarga maktab psixologi yordamida shu testni o'tkaz. Natijalar meni hayron qoldirdi — men «kuchsiz» deb o'ylagan uch bola o'rtacha darajadan yuqori chiqdi. Demak men adashgan ekanman.

Veksler shkalasi — og'zaki va amaliy qismlardan iborat kengroq test. Lekin buni faqat maxsus tayyorgarlikdan o'tgan psixolog o'tkazishi mumkin. Shuning uchun men o'zim to'g'ridan-to'g'ri qo'llamasam ham, psixolog bilan birgalikda ishlashda foydalanganmiz.

Amthauer testi intellektning qaysi tomoni kuchliroq yoki zaifroq ekanini alohida-alohida ko'rsatadi. Kimda so'z bilan ishlash kuchliroq, kimda fazoviy tasavvur, kimda hisob. Bu ma'lumot darsni rejalashtirishda juda qo'l keladi.

Men o'zim ko'p yildan buyon shu usulni qo'llayapman: har chorak boshida sinfimga bir nechta muammo-savol beraman. Bu savollar dars materialiga emas, fikrlashni talab qiladigan mantiqiy topishmoqqa o'xshash narsalar. Bolalarning javoblarini ko'rib, kim qanday fikrlayotganini taxminan anglab olaman.

Intellektual rivojlanish darajalari: amaliyotdan kuzatishlar

Yillar davomida sinflarimda o'quvchilarni kuzatib, ularni uchta shartli guruhga ajratib ko'rdim. Bu «yorliq» emas — har bola o'zgacha. Lekin umumiy qonuniyatlar bor.

Birinchi guruh — tez o'zlashtiruvchilar. Yangi mavzuni birinchi eshitishdayoq tushunib oladigan bolalar. Ular uchun standart dars ko'pincha juda oson — zerikishadi.

Bu zerikish ba'zan tartibsizlikka aylanadi. Men dastlab bunday bolalarni qiyin ko'rdim. Aslida ular qo'shimcha qiyinroq topshiriq «so'rayotgan» edi, faqat buni qanday so'rashni bilmasdi.

Ikkinchi guruh — o'rtacha sur'atda o'zlashtiruvchilar. Aksariyat bolalar shu yerda. Standart tushuntirish bilan materialni o'zlashtiradi, 2-3 misol ko'rgach tushunadi. O'qituvchi uchun «muammosiz» ko'rinadi — lekin bu guruhda ham e'tibor berilmasa rivojlanmaydigan qobiliyatlar ko'p.

Uchinchi guruh — sekin o'zlashtiruvchilar. Ko'p vaqt va takroran tushuntirishni talab qiladigan bolalar. Ularning hammasi «past intellektli» emas — ko'p hollarda sabab boshqa: uyda muammo, uyqusizlik, o'sha mavzura mos o'qitish uslubi qo'llanilmagani. Avval sababni tushunish kerak.

Va aytib o'tmoqchiman — bu guruhlar o'zgarmas emas. Men bir bolaning ikki yil uchinchi guruhda bo'lib, keyin biror mavzu uni «ushlab» olganini, qiziqib ketib, ikkinchi guruhga o'tganini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Bu har safar menga qayta umid beradi.

Darsda nima qilish mumkin — tajribadan

Nazariya yaxshi, lekin amaliyot boshqacha. Shu yillar sinab ko'rgan va ishlagan narsalardan yozay.

Birinchi — topshiriqni bir xil bermaslik. Bir mavzuda uchta darajali topshiriq tayyorlayman: asosiy, qo'shimcha va murakkab. Asosiyni hammaga beraman. Qo'shimchani tez bitirganlar uchun. Murakkabni esa istagan bola olishi mumkin — majburiy emas. Bu tizimni kiritganimdan keyin darsda zerikuvchi bola ancha kamaydi.

Ikkinchi — o'quvchilarni bir-birini o'rgatishga qo'yish. Vigotskiy aynan shu haqda gapirgan. Men ko'pincha bitta masalani ikki bola birgalikda ishlashini so'rayman — biri tushuntiradi, ikkinchisi eshitadi. Tushuntirgan bola o'zi ham yanada chuqurroq angelaydi.

Uchinchi — xatoni jazolamaslik. Bu eshitishga oson, lekin amalda qiyin. Men o'zim ham ba'zan «yana xato!» deb yuborar edim. Asta-sekin o'zgardim. Endi «yaxshi, keling bu yerda nima bo'lganini birgalikda ko'raylik» deyman. Bolalar xatoni ko'rsatishdan qo'rqmay qolsa, fikrlash faolligi oshadi.

To'rtinchi — savolni rag'batlantirish. Oddiy savolli dars o'rniga ba'zan «bugun siz menga savol bering, men javob beraman» deyman. Yoki «kim tushunmagan masalani doskaga yozib qo'ysin» deyman. Kichik o'zgarish, lekin natijasi ko'rinadi.

Tizimda mavjud muammolar haqida

Bu qismni yozish menga biroz qiyin. Chunki o'z tizimimiz haqida tanqid yozaman. Lekin o'qituvchilar bu muammolarni ochiq ko'rmasa, hech narsa o'zgarmaydi.

Birinchi muammo — maktab psixologlarining haddan ortiq yuki. Ko'p maktabda bitta psixolog 400-500 bolaga xizmat qiladi. Jiddiy diagnostik ish qilish juda qiyin. Psixolog vaqtining ko'p qismini ma'muriy hujjat to'ldirishga sarflaydi. Bu yomon psixologlar bor degani emas — tizim shunday qurilgan.

Ikkinchi muammo — o'qituvchilarning tayyorgarligi. Biz pedagogika institutida o'qidik, lekin intellektual diagnostika haqida amaliy mashg'ulot deyarli bo'lmadi. Men bu bilimlarni asosan o'zim, kitob o'qib va kurslarga borib oldim. Ko'p hamkasblarimda bu bilim yo'q — va bu ularning aybi emas, tizimning aybi.

Uchinchi muammo — ota-onalar bilan muloqot. Bir vaqt ota-onaga «bolangizning intellektual o'sishi biroz past» deganman — darhol konflikt chiqdi. «Mening bolam aqlli, siz ko'ra bilmayapsiz» deyishdi. Shu tajribadan keyin muloqot uslubimni o'zgartirdim. Endi «bolangiz bu sohada qiynalmoqda, birga ishlaylik» deyman. Bu ancha yaxshiroq ishlaydi.

To'rtinchi muammo — dasturning bir xilligi. Barcha o'quvchi uchun bir xil dastur, bir xil kitob, bir xil sur'at. Differensial ta'lim qonunda yozilgan, lekin qanday tatbiq etish kerakligi ko'rsatilmagan.

Xulosa

Bu maqolani yozishdan avval ko'p o'yladim. Nazariya ko'p, amaliyot boshqacha — bu ikki narsa orasidagi masofani qisqartirish kerak. Asosiy xulosam shuki: har bir bola intellektual jihatdan rivojlanishi mumkin, lekin barchasi bir xil yo'l bilan va bir xil tezlikda emas.

O'qituvchi sifatida vazifam — har bir bolaning hozir qayerda turganini bilish va uni bir qadam oldinga qo'yishiga yordam berish. Bu ulug'vor maqsad emas — kundalik, oddiy ish. Lekin bu ish qilinmasa, «muammoli» deb belgilangan iste'dodlar yillar davomida shunday belgilanib qolaveradi.

Vigotskiy shunday degan: bola yolg'iz bajara olmaydigan narsa, yordamchi bilan bajara oladi. Aynan shu maydon — ta'limning eng qimmatli maydoni. O'qituvchi ishi shu maydonda — bolani yolg'iz bajara oladigan darajaga olib chiqish. Boshqa narsa kerak emas.





Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, 23.09.2020. — Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2019.
3. Karimova V.M. Psixologiya asoslari. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. — 328 b.
4. Toshmatov A.T., Nazarov Sh.I. Maktab psixologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2018. — 196 b.
5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978.
6. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. — New York: Basic Books, 1983.
7. Raven J. Manual for Raven's Progressive Matrices. — Oxford Psychologists Press, 1998.
8. Elkonin D.B. Izbranniye psikhologicheskiye trudy. — Moskva: Pedagogika, 1989.
9. Zankov L.V. Didaktika i zhizn. — Moskva: Prosveshcheniye, 1968.
10. Davydov V.V. Teoriya razvivayushego obucheniya. — Moskva: INTOR, 1996.